

Date: 19th April-2026

ELEKTRON TIJORATDA TO‘LOVLARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH:
MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA

Bazarbaeva Dilyara Axmet qizi
Biznes huquqi kafedrası magistranti
Toshkent davlat yuridik universiteti
bazarbaevadilyara3@gmail.com

Mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojiga innovatsion texnologiyalar bilan sezilarli hissa qo‘shib kelayotgan raqamli institutlar orasida onlayn savdo va elektron to‘lov tizimlari alohida o‘rin tutadi. *Birinchi*dan, raqamli tijorat tadbirkorlarga geografik chegaralarsiz keng bozorlarga chiqish imkonini bersa, *ikkinchi*dan, elektron to‘lov tizimlari hisob-kitoblarning tezkorligi va xavfsizligini ta‘minlaydi. *Uchinchi*dan, naqd pulsiz tranzaksiyalar yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirib, soliq tushumlarini va davlat byudjeti barqarorligini oshiradi. *To‘rtinchi*dan, masofaviy savdo obyekti bo‘lganligi uchun xaridor va sotuvchi o‘rtasidagi bitim xarajatlarini (tranzaksion xarajatlarni) minimal darajaga tushiradi²⁰.

Tarixdan ma‘lumki, tijorat (savdo-sotiq) asrlar davomida naqd pul va to‘g‘ridan-to‘g‘ri yuzma-yuz muloqot orqali amalga oshirilgan. Ya‘ni, mazkur jarayonda tovar va pul almashinuvi bir vaqtning o‘zida sodir bo‘lib, xaridor o‘z ehtiyojini real vaqtda qondirgan. Biroq, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda Internet tarmog‘ining kashf etilishi natijasida savdo munosabatlari virtual makonga ko‘chdi²¹. Bu esa, o‘z navbatida, an‘anaviy naqd pullar o‘rmini bosuvchi va masofadan turib hisob-kitob qilish imkonini beruvchi mutlaqo yangi to‘lov vositalari - bank plastik kartalari, elektron pullar va raqamli hamyonlarning paydo bo‘lishiga zamin yaratdi.

Mustaqillikka erishgandan keyin, O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyot va elektron to‘lov tizimlariga oid maxsus qonunchilik bosqichma-bosqich ishlab chiqila boshlandi. Jumladan, dastlab 2004-yilda qabul qilingan “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonun (O‘RQ-613-II-son) sohaga oid ilk qadam bo‘ldi²². Keyinchalik iqtisodiy munosabatlar taraqqiy etishi bilan ushbu sohani to‘laqonli qamrab oluvchi huquqiy mexanizmlarga ehtiyoj tug‘ildi. Natijada 2019-yil 1-noyabrda “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi Qonun, 2022-yil 29-sentabrda esa yangi tahrirdagi “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar elektron to‘lov tizimlari operatorlari, to‘lov tashkilotlari hamda onlayn savdo ishtirokchilarining yuridik maqomini to‘laqonli belgilab berdi.

²⁰ Суюнов, Д. Х. Электрон тижорат : дарслик / Д. Х. Суюнов, А. Т. Кенжабаев, А. О. Рўзиев. – Тошкент : Бизнес ва тadbirkorлик олий мактаби, 2023. – 122-б.

²¹ Суюнов, Д. Х. Электрон тижорат : дарслик / Д. Х. Суюнов, А. Т. Кенжабаев, А. О. Рўзиев. – Тошкент : Бизнес ва тadbirkorлик олий мактаби, 2023. – 16-б.

²² O‘zbekiston Respublikasining “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonuni: 29.04.2004 yildagi O‘RQ-613-II-son // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi.



Date: 19th April-2026

Hozirgi kunga kelib, elektron to'lov tizimlari (Payme, Click, Uzum Bank va boshqalar) hamda onlayn savdo maydonchalari (Uzum Market, Olx va hokazo) tadbirkorlik faoliyatini olib borishning va xaridlarni amalga oshirishning eng qulay shakliga aylanib ulgurdi. Milliy qonunchiligimizga asosan raqamli savdoda to'lovlar asosan uch usulda - naqd pul, bank hisobvarag'idan mablag' o'tkazish hamda elektron pullar orqali amalga oshirilmogda²³. Iste'molchilar ishonchini ta'minlash maqsadida "eskrou" (deponentlash) xizmati joriy etildi, unga ko'ra xaridorning puli tovar qo'liga tekkuniga qadar ishonchli uchinchi shaxs hisobida ushlab turiladi²⁴. Shu bilan birga, kiberxavfsizlikni ta'minlash maqsadida Markaziy bank tomonidan tijorat banklari va to'lov tashkilotlari uchun konfidensial ma'lumotlar sizib chiqishini oldini olish (DLP) va imtiyozli kirishni nazorat qilish (PAM) tizimlarini majburiy o'rnatish imperativ qoida sifatida belgilab qo'yildi²⁵.

Xorijiy tajribani tahlil qiladigan bo'lsak, qator davlatlar bu borada ancha ilgari ketgan. Masalan, Xitoy Xalq Respublikasida elektron tijorat va to'lovlar asosan WeChat Pay va Alipay kabi uchinchi tomon platformalari orqali amalga oshiriladi. Xitoy qonunchiligida elektron savdo maydonchasi operatori agar sotuvchining kontrafakt yoki sifatsiz tovar sotayotganini bilsa va unga chora ko'rmasa, zararni qoplashda sotuvchi bilan solidar javobgar (joint and several liability) bo'lishi mustahkamlangan²⁶. Natijada platformalar firibgarlikni oldini olishga majbur bo'lib, xaridorlar ishonchi sezilarli darajada oshdi. Yevropa Ittifoqida esa PSD2 direktivasi asosida "Ochiq banking" (Open banking) tamoyillari amal qilib, bank bo'lmagan tashkilotlarga mijoz ruxsati bilan uning hisobidan to'g'ridan-to'g'ri to'lov initsiyatsiya qilish huquqi berilgan. Bu innovatsion moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga olib keldi.

Biroq, iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar va raqamli texnologiyalar rivojlangan sayin, onlayn savdoda to'lovlarni tartibga soluvchi milliy qonunchilikni takomillashtirishga ehtiyoj sezilmogda. Masalan, O'zbekistonda elektron tijorat bozori hajmi 2022-yildagi 311 mln dollardan 2024-yilda 1,2 mlrd dollarga yetdi (ya'ni 4 baravar o'sish)²⁷, ammo kibertajovuzlar va onlayn firibgarliklar soni 2020-yildan keyin 48 baravar ko'payib, 2025-yilda Toshkent shahrida ro'yxatga olingan jinoyatlarning yarmidan ko'pini tashkil etdi²⁸. Quyida mazkur huquqiy munosabatlarga oid bir nechta muammolarni keltirib o'tamiz.

*Birinchi*dan, amaldagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qoidalariga ko'ra, mamlakatimiz hududida chiqariladigan elektron pullar faqat milliy valyutada (so'mda)

²³ O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Elektron tijorat to'g'risida (Yangi tahrir): 29.09.2022 yildagi O'RQ-792-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2022 y., 03/22/792/0870-son. – 22-modda.

²⁴ O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Elektron tijorat to'g'risida (Yangi tahrir): 29.09.2022 yildagi O'RQ-792-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2022 y., 03/22/792/0870-son. – 24-modda.

²⁵ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining Qarori. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining axborot xavfsizligi va kiberxavfsizligiga doir minimal talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida: 01.08.2025 y., 19/1-son. – 89-band.

²⁶ Рузиназаров, Ш. Н. Право электронной коммерции : дарслик / Ш. Н. Рузиназаров. – Ташкент : ТГЮУ, 2026. – 349-б.

²⁷ O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va Toshkent shahar prokuraturasi ma'lumotlari (2025-yil hisoboti).

²⁸ O'zbekiston e-commerce bozori statistikasi (KPMG va Trade.gov ma'lumotlari, 2025).



Date: 19th April-2026

nominallashtirilgan bo‘lishi qat’iy belgilangan²⁹. Buning oqibatida, xorijiy xaridorlar va investorlarni jalb qilish, transchegaraviy elektron savdolarni amalga oshirishda mahalliy to‘lov tizimlari qator to‘siqlarga duch kelmoqda. Jahon bozoriga chiqish uchun chet el valyutasiga birlashtirilgan elektron pullar bilan ishlash mexanizmi yetarlicha ochilmagan.

Ikkinchidan, iste’molchilar huquqlarini himoya qilish maqsadida “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonunimizda pul mablag‘larini deponentlash (“eskrou”) tizimi o‘rnatilgan bo‘lsa-da, qonun hujjatlarida mazkur xizmatdan foydalanish majburiy emas, balki ixtiyoriy ko‘rinishda qoldirilgan. Onlayn firibgarliklarning asosiy qismi aynan oldindan to‘lov qilib, tovarni ololmaslik bilan bog‘liqligini inobatga olsak, “eskrou” tizimining ixtiyoriyligi xaridorlarning mulkiy huquqlari to‘laqonli kafolatlanmasligiga olib kelmoqda.

Uchinchidan, raqamli savdoda sotuvchi va xaridor o‘rtasida (B2C yoki C2C) kelib chiqadigan nizolarni hal qilish an’anaviy sud tartibida ko‘rilishi katta vaqt va tranzaksion xarajatlarni talab qilmoqda. Yevropa va AQSh davlatlarida keng qo‘llaniladigan Nizolarni onlayn hal qilish (ODR - Online Dispute Resolution) instituti bizning milliy qonunchiligimizda o‘zining aniq huquqiy ifodasini topmagan.

To‘rtinchidan, platforma operatorlari (marketpleyslar) faoliyati va ularning javobgarligi masalasidagi bo‘shliqlar saqlanib qolmoqda. Ko‘p hollarda platforma orqali firibgarlik sodir etilsa yoki yaroqsiz tovar sotilsa, platforma operatori o‘zini faqat “axborot vositachisi” sifatida ko‘rsatib, javobgarlikni to‘liq sotuvchiga yuklab qo‘yishga harakat qiladi³⁰. Bu holat xaridorlarning sarson bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda.

Shulardan kelib chiqib, yirik va jadal rivojlanayotgan raqamli tijorat hamda to‘lov tizimlarini huquqiy tartibga solish tizimini takomillashtirish yuzasidan quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

Birinchidan, “O‘zbekiston Respublikasi hududida elektron pullarning chiqarilishi va muomalada bo‘lishi qoidalariga”ga qonunchilik darajasida o‘zgartish kiritib, Yevropa Ittifoqining E-Money Directive tajribasi asosida mahalliy tijorat banklari va litsenziyalangan to‘lov tashkilotlariga xorijiy valyutaga (masalan, AQSh dollari yoki yevroga) bog‘langan elektron pullarni muomalaga chiqarish huquqini berish lozim. Bunda valyuta nazorati mexanizmlari saqlab qolinishi va Markaziy bank tomonidan qo‘shimcha litsenziya talablari belgilanishi zarur.

Ikkinchidan, iste’molchilarning mulkiy huquqlarini himoya qilishning eng samarali yechimi sifatida, “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonunga o‘zgartish kiritib, ma’lum bir miqdordan (bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravaridan) oshadigan barcha B2C va C2C ko‘rinishidagi elektron savdo tranzaksiyalari uchun “eskrou” (pul mablag‘larini deponentlash) xizmatidan foydalanishni majburiy qilish, shuningdek, platforma operatorlariga ushbu xizmatni bepul taqdim etish majburiyatini yuklash va bajarilmagan taqdirda jarima (tranzaksiya summasining 5–10 %) belgilash lozim.

²⁹ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining Qarori. O‘zbekiston Respublikasi hududida elektron pullarning chiqarilishi va muomalada bo‘lishi qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida: 29.04.2020 y., ro‘yxat raqami 3231 // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2020 y., 10/20/3231/0516-son. – 31-band.

³⁰ Рузиназаров, Ш. Н. Право электронной коммерции : дарслик / Ш. Н. Рузиназаров. – Ташкент : ТГЮУ, 2026



Date: 19th April-2026

Uchinchidan, Xitoy Xalq Respublikasining elektron tijorat qonunchiligi namunasini o‘rganib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi hamda tegishli qonunlarga elektron savdo maydonchasi (marketpleys) operatorlarining sotuvchilar bilan solidar javobgarligini belgilovchi qoidalarni kiritish kerak.

To‘rtinchidan, “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonun doirasida barcha yirik elektron savdo maydonchalari operatorlari uchun o‘z platformalariga Nizolarni sudgacha onlayn hal etish (ODR) tizimini majburiy integratsiya qilish tartibini joriy etish, shuningdek, ushbu tizimni Markaziy bank yoki Adliya vazirligi nazoratida yuritish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, elektron tijoratda to‘lovlarni huquqiy tartibga solish mexanizmlari qotib qolgan dogma emas, balki jamiyatning raqamli transformatsiyasiga mos holda doimiy o‘zgarib turuvchi jarayondir. O‘zbekistonda ushbu sohani takomillashtirish xorijiy ilg‘or yondashuvlarni milliy iqtisodiyotga tatbiq qilish, qonunchilik bazasini unifikatsiya qilish hamda fuqarolarning raqamli to‘lov tizimlariga bo‘lgan mutlaq ishonchini ta‘minlash orqali amalga oshadi. Natijada onlayn savdo hajmining yanada o‘sishi va firibgarlik holatlarining kamayishi ta‘minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida: 01.11.2019 yildagi O‘RQ-578-son // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 02.11.2019 y., 03/19/578/3986-son.
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Elektron tijorat to‘g‘risida (Yangi tahrir): 29.09.2022 yildagi O‘RQ-792-son // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 30.09.2022 y., 03/22/792/0870-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining Qarori. O‘zbekiston Respublikasi hududida elektron pullarning chiqarilishi va muomalada bo‘lishi qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida: 29.04.2020 y., ro‘yxat raqami 3231 // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.04.2020 y., 10/20/3231/0516-son.
4. Рузиназаров, Ш. Н. Право электронной коммерции : дарслик / Ш. Н. Рузиназаров. – Ташкент : ТГЮУ, 2026. – 880 б.
5. Суюнов, Д. Х. Электрон тижорат : дарслик / Д. Х. Суюнов, А. Т. Кенжабаев, А. О. Рўзиев. – Тошкент : Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби, 2023. – 298 б.
6. Rahmonova, Z. Z. Elektron to‘lov tizimlari va ularning huquqiy tartibga solinishi / Z. Z. Rahmonova // Toshkent davlat yuridik universiteti. – Toshkent, 2024. – B. 12-15.
7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining Qarori. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining axborot xavfsizligi va kiberxavfsizligiga doir minimal talablar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida: 01.08.2025 y., 19/1-son.
8. Directive (EU) 2015/2366 of the European Parliament and of the Council on payment services in the internal market (PSD2). Official Journal of the European Union, 2015.
9. O‘zbekiston Respublikasining “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonuni: 29.04.2004 yildagi O‘RQ-613-II-son // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi.

